



## XALQ DEPUTATLARI BUVAYDA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2024-yil 12-avgust

VI-71-70-11-154-K/24

Buvayda tumani

### O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-apreldagi “Ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini davlat-xususiy sheriklik asosida modernizasiya qilish to‘g‘risida”gi PQ-118-son qarorining Buvayda tumanida ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-apreldagi “Ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini davlat-xususiy sherikchilik asosida modernizasiya qilish to‘g‘risida”gi PQ-118-son qarorini tumanda ijrosini tashkillash yuzasidan O‘zbekiston Respublikasining 10.05.2019-yildagi “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi 537-son Qonunining 29-moddasida “agar qonunchilikda yoki davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitimda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitim taraflarning kelishuviga ko‘ra yoxud sudning qaroriga binoan o‘zgartirilishi, unga qo‘srimcha kiritilishi yoki u bekor qilinishi mumkin”ligini inobatga olib, xalq deputatlari tuman Kengashiga taqdim etilgan hujjatlar muhokamasidan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Buvayda tumanı Kengashi sessiyasi

#### Q A R O R   Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-apreldagi PQ-118-son qarori Rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-apreldagi PQ-118-son qarori bilan tumanda **134 ta** ijtimoiy soha obyektlarida amalga oshirilayotgan modernizasiya ishlari jarayonida ayrim muassasalarning isitish tizimlarida kechiktirib bo‘lmaydigan modernizasiya ishlarini amalga oshirish zaruriyati yuzaga kelganligi sababli o‘tkazilgan, qayta xatlov natijasida (*loyiha-smeta hujjatlari va ekspertiza xulosasiga asosan*) **120 ta** muassasaga **380 dona qozon** o‘rnatish, **89 ta** muassasaga **36 760 dona** radiator seksiyalarini o‘rnatish, **90 ta** muassasaning **18 546 metr** ichki tarmog‘ini (*truba*) yangilash talab etilganligi inobatga olinsin.

**3.** Tumandagi ijtimoiy soha obyektlarini issiqlik ta'minoti tizimini DXSH asosida xususiy sherik boshqaruviga berish va modernizasiya qilish to'g'risida tuzilgan DXSH to'g'risidagi bitimlarga kiritilayotgan o'zgartirishlar **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

**4.** Davlat sherigi – Buvayda tuman hokimligi va xususiy sheriklar "SHODMONOV MAHMUTALIEVICH" xususiy korxonasi (*11.07.2023 yilda DXSH/122-2023*), "XONOBOD QORA OLTIN" MCHJ (*11.07.2023 yilda DXSH/123-2023*), "RM CONSULTING GROUP" MCHJ (*11.07.2023 yilda DXSH/125-2023*), "ANAS FREE BULD" MChJ (*11.07.2023 yilda DXSH/124-2023*) lar o'rtasida tuzilgan bitimga belgilangan tartibda qo'shimcha kelishuvlar rasmiylashtirilsin.

**5.** Loyihalarni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-apreldagi PQ-118-son qarorining 6-bandи hamda xalq depututlari tuman Kengashining 2023-yil 15-iyundagi VI-57-52-11-154-K/23-son qarori talablariga asosan:

- davlat sherigi – Buvayda tuman hokimligi;

- xususiy sheriklar –tomonidan davlat xususiy sheriklik asosida modernizasiya qilish ishlarini yuqoridagi ilovaga muvofiq amalga oshirilishi belgilansin.

**6.** Belgilangan loyihalarni amalga oshirishda:

a) davlat sherigi tomonidan:

davlat ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini xatlovdan o'tkazish, loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va davlat ekspertizasidan o'tkazish;

b) xususiy sheriklar tomonidan:

loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishda ko'mir yoqilg'isida ishlaydigan energiya tejamkor qozonlarni o'rnatish va obyektlardagi ichki issiqlik tarmoqlarini modernizasiya qilish belgilab qo'yilsin.

**7.** Loyerha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va davlat ekspertizasidan o'tkazish xarajatlari mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

**8.** Tuman hokimligi matbuot kotibi (A.Shokirov) mazkur Kengash qarorini tuman hokimligi "Buvayda ko'zgusi" gazetasida, shuningdek rasmiy internet-kanallar va ijtimoiy tarmoqlarda yoritish tavsiya etilsin.

**9.** Mazkur Kengash qarorining ijrosini ta'minlab borishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib tuman hokimining o'rribosari S.Xizirov hamda tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i A.Ergashev belgilansin.

Qaror bajarilishini nazorat qilish vazifasi xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati (Mamadaliyev) va xalq deputatlari tuman Kengashining "Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko'rsatish masalalari bo'yicha" hamda

“Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiya raisi H.Akbarov va “Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga hizmat ko`rsatish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiya raisi Sh. Nazirovlar zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



IBRAGIMOV BEXZOD  
ODILJONOVICH

Xalq deputatlari Buvayda tumani Kengashining  
 2024-yil 12-avgustdagি  
 VI-71-70-11-154-K/24 -son qaroriga  
 1-ilova

**Tumandagi ijtimoiy soha obyektlarini issiqlik ta'minoti tizimini DXSH asosida xususiy sherik boshqaruviga berish va  
 modernizasiya qilish to'g'risida tuzilgan DXSH to'g'risidagi bitimlarga kiritilayotgan o'zgartirish to'g'risida  
 MA'LUMOT**

| №                 | Xususiy sherik                            | Rasmiylashtirilgan DXSH bitimi<br>bo'yicha |                                              |                             | Boshqa xarajatlar      | Bitimga kiritilayotgan o'zgartirish |                                              |                             | Boshqa xarajatlar      |
|-------------------|-------------------------------------------|--------------------------------------------|----------------------------------------------|-----------------------------|------------------------|-------------------------------------|----------------------------------------------|-----------------------------|------------------------|
|                   |                                           | O'rnatiladigan qozonlar soni               | yangi radiatorlarni (seksiyalarni) o'rnatish | Barcha diametrдagi trubalar |                        | O'rnatiladigan qozonlar soni        | yangi radiatorlarni (seksiyalarni) o'rnatish | Barcha diametrдagi trubalar |                        |
| <b>Tuman jami</b> |                                           | <b>529</b>                                 | <b>59 003</b>                                | <b>19 926</b>               | <b>4 277<br/>392,7</b> | <b>380</b>                          | <b>36 760</b>                                | <b>18 545,8</b>             | <b>7 783<br/>144,8</b> |
| 1                 | "SHODMONOV MAXMUTALI RAXMATALIYEVICH" h/k | 215                                        | 18 655                                       | 7 297                       | 1 628<br>238,2         | 135                                 | 14 211                                       | 7 834.8                     | 3 035 193              |
| 2                 | "XONOBOD QORA OLTIN" MCHJ                 | 126                                        | 15 387                                       | 4 954                       | 1 040<br>523,1         | 101                                 | 6 378                                        | 2 405                       | 1 766 454              |
| 3                 | "RM CANSULTING GROUP" MCHJ                | 70                                         | 6 381                                        | 2 372                       | 567 643,8              | 50                                  | 5 760                                        | 2 735                       | 982 942                |
| 4                 | "ANAS FREE BULD" MCHJ                     | 118                                        | 18 580                                       | 5 303                       | 1 040<br>987,6         | 94                                  | 10 411                                       | 2 571                       | 1 998 555              |